

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA PEDAGOGIK EMPATIYANI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI



© A.Sh. Azimova¹✉

¹Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida pedagogik empatiyani shakllantirishning nazariy asoslari, mazmuni, tarkibiy komponentlari va samarali pedagogik-psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Empatiya pedagogik jarayonning insonparvarlik paradigmasida markaziy o'rin tutishi, tarbiyachi faoliyatidagi kommunikativ madaniyat, bolalar bilan ijobiy emosional munosabat va samarali o'zaro ta'sirni ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy asoslab beriladi.

MAQSAD: pedagogik empatiya - tarbiyachining hissiy xususiyati bo'lib, u ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarda, ularning bir-birini idrok etishida va ular o'rtasida o'zaro tushunishni o'rnatishda katta rol o'ynaydi. Shu bois bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida pedagogik empatiyani shakllantirish hissiy madaniyatning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hissiy barqarorlik, moslashuvchanlik va empatiyani yuqori darajada rivojlantirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida pedagogik empatiyani shakllantirish uchun bir necha metodlar qo'llanildi: adabiyotlarni tahlil qilish, so'rovnomalar o'tkazish, intervyu o'tkazish, amaliyotga oid tadqiqotlar, statistik tahlil.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida pedagogik empatiyani shakllantirishning nazariy asoslari, mazmuni, tarkibiy komponentlari va samarali pedagogik-psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Empatiya pedagogik jarayonning insonparvarlik paradigmasida markaziy o'rin tutishi, tarbiyachi faoliyatidagi kommunikativ madaniyat, bolalar bilan ijobiy emosional munosabat va samarali o'zaro ta'sirni ta'minlash orqali o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini kuchaytirishga, shuningdek, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilar malakasini oshirishga yordam beradi.

XULOSA: bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida pedagogik empatiyani shakllantirish zamonaviy pedagogik jarayonning tamal unsurlaridan biridir. Empatiyani rivojlantirish mexanizmlari tizimli, ilmiy asoslangan va amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Kalit so'zlar: empatiya, pedagogik-psixologik, tarbiyachi, bola, emosional, shaxs, talim, kasb, tarbiya, hissiy, kompetensiya, qobiliyat.

Iqtibos uchun: Azimova Sh.A. bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida pedagogik empatiyani shakllantirish mexanizmi // Inter education & global study. 2025. vol.3, №5. B.112–117.

МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭМПАТИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

© А.Ш. Азимова^{1✉}

¹Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются теоретические основы, содержание, структурные компоненты и эффективные педагогические и психологические механизмы формирования педагогической эмпатии у будущих воспитателей дошкольных образовательных организаций. Научно обосновано центральное место эмпатии в гуманитарной парадигме педагогического процесса, ее важность в обеспечении коммуникативной культуры в работе воспитателя, позитивных эмоциональных отношений с детьми и эффективного взаимодействия.

ЦЕЛЬ: педагогическая эмпатия – это эмоциональная характеристика воспитателя, играющая важную роль во взаимоотношениях участников образовательного процесса, в их восприятии друг друга и в установлении взаимопонимания. Таким образом, одним из важнейших показателей эмоциональной культуры в формировании педагогической эмпатии у будущих педагогов дошкольных образовательных организаций является развитие эмоциональной устойчивости, гибкости и эмпатии на высоком уровне.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данной статье для формирования педагогической эмпатии у будущих педагогов дошкольных образовательных организаций использовались различные методы: анализ литературы, анкетирование, интервьюирование, практическое исследование, статистический анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в данной статье анализируются теоретические основы, содержание, структурные компоненты и эффективные педагогико-психологические механизмы формирования педагогической эмпатии у будущих педагогов дошкольных образовательных организаций. Эмпатия, занимающая центральное место в гуманистической парадигме педагогического процесса, способствует укреплению личностного и социального развития учащихся, обеспечивая коммуникативную культуру в работе воспитателя, позитивное эмоциональное отношение и эффективное взаимодействие с детьми, а также повышая квалификацию будущих педагогов дошкольных образовательных организаций.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование педагогической эмпатии у будущих воспитателей дошкольных учреждений является одним из фундаментальных

элементов современного педагогического процесса. Механизмы развития эмпатии должны быть систематическими, научно обоснованными и практико-ориентированными.

Ключевые слова: эмпатия, педагогико-психологический, воспитатель, ребенок, эмоциональный, личность, образование, профессия, воспитание, эмоциональный, компетентность, способность.

Для цитирования: Азимова А.Ш. механизм формирования педагогической эмпатии у будущих учителей дошкольных образовательных организаций Символика животных в изобразительном искусстве. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 112–117.

MECHANISM OF FORMING PEDAGOGICAL EMPATHY IN FUTURE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION TEACHERS

©Anzirat Sh. Azimova¹✉

¹Buxoro state university, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the theoretical foundations, content, structural components and effective pedagogical and psychological mechanisms of forming pedagogical empathy in future preschool educational organization educators. The central place of empathy in the humanitarian paradigm of the pedagogical process, its importance in ensuring communicative culture in the educator's work, positive emotional relations with children and effective interaction are scientifically substantiated.

AIM: pedagogical empathy is an emotional characteristic of the educator, which plays a major role in the relations between participants in the educational process, in their perception of each other and in establishing mutual understanding between them. Therefore, one of the most important indicators of emotional culture in the formation of pedagogical empathy in future educators of preschool educational organizations is the development of emotional stability, flexibility and empathy at a high level.

MATERIALS AND METHODS: in this article, several methods were used to form pedagogical empathy in future educators of preschool educational organizations: literature analysis, questionnaires, interviews, practical research, statistical analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: in this article, the theoretical foundations, content, structural components and effective pedagogical and psychological mechanisms of forming pedagogical empathy in future educators of preschool educational organizations are analyzed. Empathy, taking a central place in the humanistic paradigm of the pedagogical process, helps to strengthen the personal and social development of students by ensuring a communicative culture in the educator's work, a positive emotional attitude and effective interaction with children, as well as improving the qualifications of future educators of preschool educational organizations.

CONCLUSION: the formation of pedagogical empathy in future preschool educators is one of the fundamental elements of the modern pedagogical process. Mechanisms for developing empathy should be systematic, scientifically based and practice-oriented.

Keywords: empathy, pedagogical-psychological, educator, child, emotional, personality, education, profession, upbringing, emotional, competence, ability.

For citation: Anzirat Sh. Azimova. (2025), mechanism of forming pedagogical empathy in future preschool educational organization teachers. Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 112–117. (In Uzbek).

Maktabgacha ta'lim jarayoni bolada shaxsning psixologik, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga asos bo'ladigan eng dastlabki bosqichdir. Tarbiyachining bolaga nisbatan to'g'ri hissiy munosabat, tushunish, hamdardlik va ruhiy qo'llab-quvvatlash kabi malakalari maktabgacha ta'lim sifatining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu bois bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik empatiyani shakllantirish-ularning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi. Pedagogik empatiya tushunchasi va uning mazmuni: Pedagogik empatiya-bu tarbiyachining bola ruhiy holatini anglash, his-tuyg'ulariga hamdard bo'lish, holatni ichki qabul qilish va pedagogik jarayonda optimal qaror qabul qilish qobiliyatidir. Empatiyaning asosi hissiy sezgirlik, aql va atrof-muhitni oqilona idrok etishdir. Pedagogik empatiya - tarbiyachining hissiy xususiyati bo'lib, u ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarda, ularning bir-birini idrok etishida va ular o'rtasida o'zaro tushunishni o'rnatishda katta rol o'ynaydi. Hissiy madaniyatning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hissiy barqarorlik, moslashuvchanlik va empatiyaning yuqori darajada rivojlanganligidir. Tarbiyachining empatiya qobiliyati bolaning psixologik holatini o'z hissiy tajribasiga asoslangan holda, hissiy assotsiatsiyalar va ko'chirish orqali tushunishida namoyon bo'ladi. Empatiya - bu hamdardlik, ya'ni boshqa odamning his-tuyg'ularini o'z his-tuyg'ularini butunlay eritib yubormasdan, uni aks ettirish va qabul qilish qobiliyati. Tarbiyachilik kasbining asosi - bu boshqalar: bolalar, ota-onalar, hamkasblar bilan o'zaro munosabat. Maktabgacha ta'limning ta'lim jarayonida empatiya "muvoafiqiyatli muloqot" va muvozanatli shaxslararo munosabatlarni o'rnatishga hissa qo'shadigan tarbiyachilar uchun professional muhim sifat hisoblanadi. Empatiya - bu boshqa odamning hissiy holatini aks ettirish va tushunish, boshqasiga rahm-shafqat yoki hamdardlik hissi, xatti-harakatlarga faol yordam berishni o'z ichiga olgan hissiy hodisa. Empatiyaning asosi hissiy sezgirlik, aql va atrof-muhitni oqilona idrok etishdir. Empatiya, har qanday hissiy hodisa kabi, rivojlanishi va takomillashtirilishi mumkin.

Pedagogik empatiya quyidagi komponentlardan tarkib topadi: Kognitiv component-bolaning holatini, sabab-oqibat munosabatlarini intellektual tushunish; Emotsional component-bolaga nisbatan samimiy hissiy javob qaytarish; Axloqiy-irodaviy component-empatik tushunishga asoslangan pedagogik qaror va xatti-harakatlar; Kommunikativ component-muloqotda sezgirlik, ijobiy muhit yaratish, konstruktiv dialog yuritish. Bo'lajak

tarbiyachilarda pedagogik empatiyani shakllantirish zarurati O'zbekiston ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan pedagogika asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib, bunda tarbiyachining axloqiy-psixologik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon maktabgacha ta'limining o'zgaruvchan sharoitlari empatik kompetensiyani quyidagi sabablarga ko'ra talab qilmoqda: bola psixologiyasi bilan nozik ishlash zarurati; turli temperament tipiga ega bolalar bilan individual yondashuvni ta'minlash; oilaviy ijtimoiy muhitdan kelib chiqadigan hissiy muammolarni sezish; noqulay vaziyatlarda bolaning emotsional xavfsizligini ta'minlash. Empatik madaniyatni rivojlantirishga yordam beradigan bir qator hissiy va intellektual usullarni taklif qiladigan dialogik muloqot usuli katta ahamiyatga ega. Mana ulardan ba'zilari: Boshqa shaxsni tushuna olish - bu o'zini boshqa odamning holati yoki pozitsiyasiga qo'yish orqali tushunish usuli. Bu bizga ularning ichki holatini, niyatlarini, motivlarini va his-tuyg'ularini tushunishga yordam beradi. Xulosa qilish - suhbat davomida boshqa shaxs tomonidan bildirilgan asosiy g'oyalar va his-tuyg'ularni umumlashtirish uchun ishlatiladigan usul. Bu boshqa odamning xabarining to'g'riligiga ishonchni ta'minlaydi. "Ko'zgu" oxirgi iborani boshqa so'z tartibi bilan takrorlash usuli bo'lib, bu boshqa odamga o'z bayonotini tushunishga yordam beradi. Ushbu uslub munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan. "To'g'ri ism" - suhbatdosh bilan muloqot qilishda siz tez-tez unga ism bilan murojaat qilishingiz kerak, bu esa u har doim ham tushuna olmasligi mumkin bo'lgan qoniqish hissini keltirib chiqaradi. Pedagogik empatiyani shakllantirish mexanizmlari bo'lajak tarbiyachilarda empatik qobiliyatni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik mexanizmlar samarali hisoblanadi: 1. Psixologik treninglar "Rolga kirish" mashqlari

"Kuzatuvchanlikni rivojlantirish" topshiriqlari

1. Emotsional sezgirlikni oshirish bo'yicha mashg'ulotlar
2. Refleksiv texnologiyalar kundalik yuritish; o'z faoliyatini videokuzatuv asosida tahlil qilish; "Empatiya kundaligi" metodikasi.

3. Interaktiv o'quv metodlari situatsion vaziyatlar ("case-study"); dramatizatsiya va psixo-dramalar; kichik guruhlarda muammoli vazifalarni yechish.

4. Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik amaliyot bolaning individualligini inobatga olish; ota-onalar bilan hamkorlikda empatik yondashuvni kuzatish; amaliyot davomida mentorlar tomonidan kuzatuv va tahlil.

5. Kompyuter va raqamli texnologiyalar virtual pedagogik vaziyatlar modellashtirish; emotsional intellektni baholovchi digital testlar; VR-treninglar yordamida pedagogik vaziyatlarni simulyatsiya qilish.

Pedagogik empatiya shakllanishining diagnostik metodlari Mehrabian–Epsteyn empatiya shkalasi; Boyko emotsional charchoq diagnostikasi; "Bola holatini idrok etish" kuzatuv kartalari; Tarbiyachining kommunikativ madaniyati monitoringi. Natijalar va muhokama tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik empatiya darajasi ularning psixologik madaniyati, kommunikativ salohiyati va kasbiy motivatsiyasi bilan bevosita bog'liq. Empatik yondashuvni shakllantirishga yo'naltirilgan treninglar va amaliy mashg'ulotlar tarbiyachilarning: bolani chuqurroq tushunish; murakkab

vaziyatlarda to'g'ri pedagogik qaror qabul qilish; sog'lom emosional muhit yaratish; stressni boshqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Xulosa o'rnida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida pedagogik empatiyani shakllantirish zamonaviy pedagogik jarayonning tamal unsurlaridan biridir. Empatiyani rivojlantirish mexanizmlari tizimli, ilmiy asoslangan va amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu esa tarbiyachining bolalar bilan ishlashdagi professional samaradorligini, muloqot madaniyatini va pedagogik kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Выготский Л.С. «Основы психологии».
2. Роджерс К. «Педагогика, ориентированная на личность».
3. Бойко В.В. «Психодиагностика эмоциональной эмпатии».
4. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
5. Ochildiyeva N., Maxmudova D. Pedagogik muloqot va empatiya.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Azimova Anzirat Shoyiqulovna**, Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, [Азимова Анзират Шойикуловна, саискатель Бухарского государственного университета], [Azimova Anzirat Shoykulovna, independent researcher at Bukhara State University]; manzil: O'zbekiston, Buxoro sh., Alpomish ko'chasi, 9-uy 45 xona [адрес: Узбекистан, ул. Алпомиш, 316, г. Бухоро], [address: Uzbekistan, 41, Alpomish st., Bukhara city] E-mail: anziratazimova0106@gmail.com. Orcid: 0009-0003-7448-1839